



**AJER**  
AKADEMIC JOURNAL OF  
EDUCATIONAL RESEARCH

# ISSUE 2

**AKADEMIC JOURNAL  
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

**MARCH 2024**

**[WWW.AJERUZ.COM](http://WWW.AJERUZ.COM)**

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O'QITUVCHI VA TYUTORNING SAMARALI HAMKORLIGI

<sup>1</sup>Egamberdiyeva Nigora Azizovna, <sup>2</sup>Sharipov Mirjalol Jamoliddin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika kafedrası" o'qituvchisi

[nigoraazizovna1991@gmail.com](mailto:nigoraazizovna1991@gmail.com)

Maxsus pedagogika/logopediya I bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun tyutorlik faoliyati zarur shartdir. Maqolada "o'qituvchi va tyutor" tizimida nogiron bolani psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish shakllari, yondashuvlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, tyutor, maxsus ta'lim ehtiyojlari, psixologik va pedagogik yordam.

**Аннотация:** как показывает практика, тьюторская деятельность является необходимым условием обеспечения доступа к качественному образованию детей с отклонениями в развитии. В статье раскрыты формы, подходы к организации психолого-педагогического сопровождения ребенка с ОВЗ в системе "учитель и тьютор".

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, тьютор, особые образовательные потребности, психолого-педагогическая помощь.

**Abstract:** As practice shows, tutoring is a necessary condition for ensuring access to quality education for children with developmental disabilities. The article reveals the forms and approaches to the organization of psychological and pedagogical support for a child with disabilities in the "teacher and tutor" system.

**Keywords:** inclusive education, children with disabilities, tutor, special educational needs, psychological and pedagogical assistance.

So'nggi yillarda alohida ehtiyojli bolalarni jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq ta'minlash, barcha sohalarda sifatli ta'lim olishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizda nogironligi bor shaxslarga sifatli ta'lim olish uchun zarur sharoitlar yaratilishini belgilaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amaliyotga joriy etib borilmoqda.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim atamasi fransuzcha inklusif so'zidan olingan bo'lib o'z ichiga oladi degan ma'noni anglatadi.

“Inklyuziv ta'lim” atamasi fransuzcha “inclusif” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan shaxslarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Inklyuziv ta'lim - hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan bo'lib, “inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada bu tushunchalar orasida farq bor.

- nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.
- integratsiyalashgan ta'lim bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.
- integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi inklyuziv sinflarda quyidagi toifadagi alohida ehtiyojli bolalar ta'lim olmoqdalar: eshitishida, ko'rishida, tayanch harakat a'zolarida, nutqida muammolari bo'lgan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, yengil darajadagi aqli zaiflik, autizmning yengil darajasi, koxlear implantli bolalardir.

Inklyuziv ta'lim ishtirokchilariga oila, maktab, mahalla, sinfdoshlari va tengdoshlari, mutaxassislar, sog'liqni saqlash tizimi hodimlari kiradi.

Hozirgi kunda alohida ehtiyojli bolalar orasida autizm sindromli bolalar sonini ortib borishi, bu toifadagi bolalarni qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalardandir. Ta'lim

muassasasida ta'lim olish ko'plab bolalar uchun qiyin sinov, jiddiy psixologik stressni keltirib chiqaradigan va bolani psixologik kasalliklarga olib keladigan kuchli aversiv (yoqimsiz) stimuldir. Ularning asosiylari xulq-atvor muammolari va muloqotdagi qiyinchiliklari bo'lib, ular o'quv jarayonini autistik bolaning o'zi va uning sinfdoshlariga tashkil etishga xalaqit beradi. Mutaxassislar autizmda o'quv materiallarini o'zlashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada tushunmaydilar.

Autizm spektrida kamchiligi bor o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlariga javob beradigan maxsus ta'lim sharoitlarini yaratish ta'lim tashkiloti pedagogik jamoasining samarali tashkiliy ishini va autizm spektri buzilgan bolalar bilan ta'lim faoliyatini amalga oshiradigan mutaxassislarning to'liq kasbiy kompetensiyasini talab qiladi. O'zaro munosabatga kirishishda kamchiliklar yoki xulq-atvorida va psixik jarayonlarida qo'pol buzilishlari yo'q ASB bola uchun maktab ta'limining eng istiqbolli shakli – bu bosqichma-bosqich, individual ravishda dozalangan qo'llab-quvvatlanadigan integratsiyasidir. Bolani ta'limi va tarbiyasida autizm sindromli bolalar butun umri davomida maxsus tashkil etilgan qo'llab-quvvatlash ishiga muhtoj. Shu munosabat bilan psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati, zarurati, uning maktabdagi o'rni, roli, funksiyasini aniqlashga ehtiyoj ortib bormoqda.

Moslashtirilgan ta'lim dasturi ASB o'quvchilarning o'quv jarayoniga aniq va oqilona xarakter beradi, bunda kerakli maqsadlarni shakllantirish, ularga erishish strategiyasini aniqlash va ta'lim-tarbiya natijalarini kuzatish mumkin.

Autizm sindromli o'quvchilar uchun umumiy ta'lim dasturini muvaffaqiyatli ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mutaxassislarning (o'qituvchi, tyutor, psixolog, o'qituvchi-logoped, o'qituvchi-defektolog va boshqalar), shuningdek ta'lim tashkiloti ma'muriyatining hamjihatlikdagi, jamoaviy ishi zarur. Faqatgina bolaning qiyinchiliklarini birgalikda muhokama qilish, umumiy maqsadlarni belgilash, yagona uslubiy yondashuv aniqlangan muammolarni tuzatish bilan bolani rivojlantirish bo'yicha kompleks psixologik va pedagogik ishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Autizm sindromli o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida quyidagilar zarur:

- bolaning xususiyatlariga mos keladigan o'quv jarayonini tashkil etish shakllaridan foydalanish,
- bolaning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan metodlardan foydalanish (bolaning o'z manfaatlariga tayanish)
- bolaning xususiyatlariga mos keladigan moslashtirilgan didaktik materiallardan foydalanish,
- vazifalarni individual tanlash.

O'quv sharoitida autizm sindromli bola o'z xatti-harakatlarini tashkil qilishda ham, ma'lumotni frontal taqdim etish formatida bilim olishda ham ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Bu omillarning barchasi tyutor bilan birga bo'lishni talab qiladi. Aynan shu mutaxassis dars davomida bolaga kerakli harakatlar ketma-ketligini boshqarishga yordam beradi, o'qituvchining ko'rsatmalarini moslashtiradi, kerakli xatti-harakatlarning afzalliklarini mustahkamlaydi, tengdoshlari bilan muloqotda zarur yordamni ko'rsatadi.

Tyutor - bu rivojlanish xususiyatlarida o'quvchining shaxsiy hamrohi. O'qituvchi va tyutor bu vazifalarni eng samarali tarzda taqsimlaydigan bitta jamoa. Tyutor o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi, bu o'qituvchi uchun qulay va bola uchun foydali bo'ladi.

O'qituvchi va tyutorning birgalikdagi faoliyatining maqsadi rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolani maktab muhitiga muvaffaqiyatli kiritish uchun sharoitlarni tashkil etish va o'quv dasturini bolaga qulay tezlikda va tegishli hajmda moslashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdir.

Autizm sindromli bolalar o'quv bilimlarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish uchun tyutor va o'qituvchi o'quv topshiriqlarini dozalashni muhokama qiladilar, vositalarni muvofiqlashtiradilar.

Autizm spektrida kamchiligi bo'lgan bolalarda ruhiy jarayonlari, affektiv holati, xulq-atvori va nutqida turli xil kamchiliklar kuzatiladi. ASB bola uchun uning o'ziga xos qiziqishlari va hissiy ma'lumotlarni qayta ishlash xususiyatlarini hisobga olgan holda rag'batlantiruvchi muhitni yaratish ushbu qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

ASB bolalarini o'qitishda o'qituvchilar duch keladigan asosiy va birinchi qiyinchiliklardan biri bu stereotipik xatti-harakatlardir. Noto'g'ri xatti-harakatlar insonning jamiyatga integratsiyalashuviga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy jihatdan nomaqbul xatti-harakatlardir. ASB bilan og'rikan bolalarda bunday xatti-harakatlarning mavjudligi va ularning maktabga moslashish jarayoniga sezilarli darajada xalaqit berishi, ular uchun moslashtirilgan asosiy ta'lim dasturini ishlab chiqishni imkonsiz qiladi, sinfdagi o'quv jarayonini "buzadi" va atrofdagi odamlar bilan yetarli aloqalarni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun, agar ASB bilan og'rikan bolada bunday xatti-harakatlar namoyon bo'lsa, unda uni tuzatish psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash mutaxassislarining ustuvor vazifasiga aylanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mo'minova L.R. "Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari". Uslubiy qo'llanma. Toshkent "Spectrum Media Group" 2015-yil.
2. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoiti–autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. Konferensiya, 1(1), 154-158.
3. Egamberdiyeva, N. A. Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari" mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi.
4. Qodirova, F. U., & Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.
5. Egamberdiyeva, N. A., & Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167.



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)**  
**international scientific journal**  
**2-son**

Nashr qilingan sana: 25.03.2024.  
Shrift: "Times New Roman".

**“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ**

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.  
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172